

11-sinf ona tili. 2-BSB

Matn ustida ishlash (25 ball)

BSB bo'yicha o'quvchiga qo'yiladigan talablar:

- berilgan matndan yordamchi so'zlani aniqlab, ularni turiga ko'ra ajrata oladi;
- matndan kelishiklarni aniqlab, ularning gapdagi vazifasini biladi;
- ismlarning kesimga xoslovchi hamda ismlarning lug'aviy shakllari haqida biladi.

OLIMJON. Nima, bizni hukumatning pulini shundoq yeb yotibdi, deb o'layapsizmi? Biz ham qidiryapmiz, izlanyapmiz, o'layapmiz.

QO'CHQOR. E, bitta paxta teradigan mashinani ellik yil o'laydimi! Goh rulini o'zgartirasanlar, goh kabinasini, goh o'tirg'ichini — bo'ldi! Biz, yangi mashina kelar ekan, deb do'ppimizni osmonga otib yuramiz. Qarasak, o'sha-o'sha — Xolxo'janing tayog'i!

OLIMJON. To'g'ri, lekin bu muammoni asosiy maqsaddan kelib chiqib, kompleks hal qilish kerak.

QO'CHQOR. Nima-pleks?

OLIMJON. Kompleks. Asosiy maqsad nima? Paxtani sifatli terib olishmi? Ana shu maqsaddan kelib chiqish kerak. Paxta teradigan mashinaning shakli qanaqa bo'ladi — buning ahamiyati yo'q. Muhimi, yaxshi tersin. Men bu borada boshqa yo'ldan ketyapman, Qo'chqor aka. Ko'proq masalaning estetik tomoniga e'tibor beryapman. Bir tasavvur qiling-a: paxtazordan xotin-qizlarning quvnoq kulgisi eshitilib turibdi! Qiy-chuv, hazil-huzil! Kechqurunlari qishloq ko'chalarini to'ldirib, qiz-juvonlar o'tishyapti! Ko'rib ko'z quvonadi, dil yayraydi! "Tar-tar-tar" qilib ko'chadan traktor o'tgani qayoqda-yu, qo'ng'iroqday ovozi bilan ko'nglimizni entiktirib, qizlar o'tgani qayoqda! Farqi bormi? Shuning uchun men paxta teradigan mashina emas, paxta teradigan elektron robot ustida ishlayapman. Tashqi ko'rinishi odamdan farq qilmaydi. Ko'radi, eshitadi, gapiradi! Tanasi ham plastik materialdan yasalgan...

QO'CHQOR. Nima-stik?

OLIMJON. Plastik. Faqat tashqi ko'rinishi emas, xatti-harakati, imo-ishoralari, gap-so'zi odamga maksimum darajada yaqinlashtirilgan.

QO'CHQOR. Nima-simum?

OLIMJON. Maksimum. Masalan, boshqaruв blokiga humor hissi bilan bog'liq mikrosxema o'rnatilsa...

(Sharof Boshbekov. "Temir xotin")

Matn ustida ishlash uchun topshiriqlar.

**1. Ushbu gaplar tarkibidagi yordamchi so'zlarni turiga ko'ra ajrating.
(8 ball).**

- 1.1. Goh rulini o'zgartirasanlar, goh kabinasini, goh o'tirg'ichini — bo'ldi-da!
- 1.2. Bir tasavvur qiling-a: paxtazordan xotin-qizlarning quvnoq kulgisi eshitilib turibdi!

1.3. “Tar-tar-tar” qilib ko‘chadan traktor o‘tgani qayoqda-yu, qo‘ng‘iroqday ovozi bilan ko‘nglimizni entiktirib, qizlar o‘tgani qayoqda!

1.4. Shuning uchun men paxta teradigan mashina emas, paxta teradigan elektron robot ustida ishlayapman.

2. Kelishik shakllari ishtirok etgan so‘zlarning qaysi gap bo‘lagi vazifasida kelganini aniqlang. (6 ball)

2.1. Nima, bizni hukumatning pulini shundoq yeb yotibdi deb o‘ylayapsizmi?

2.2. Bir tasavvur qiling-a: paxtazordan xotin-qizlarning quvnoq kulgisi eshitilib turibdi.

2.3. Ko‘proq masalaning estetik tomoniga e’tibor beryapman.

3. Ushbu gaplar tarkibidan ismlarni kesimga xoslovchi shakllarni aniqlab yozing. (6 ball)

3.1. To‘g‘ri, lekin bu muammoni asosiy maqsaddan kelib chiqib, kompleks hal qilish kerak.

3.2. Ana shu maqsaddan kelib chiqish kerak.

3.3. Shuning uchun men paxta teradigan mashina emas, paxta teradigan elektron robot ustida ishlayapman.

4. Parchadan ajratib ko‘rsatilgan birikmaning matn mazmuniga qay darajada ta’sir qilgani, qanday mazmun ifodalab kelgani haqida fikr-mulohazalaringizni yozing. (5 ball)

QO‘ChQOR. E, bitta paxta teradigan mashinani ellik yil o‘ylaydim! Goh rulini o‘zgartirasanlar, goh kabinasini, goh o‘tirg‘ichini — bo‘ldi! Biz, yangi mashina kelar ekan, deb do‘ppimizni osmonga otib yuramiz. Qarasak, o‘sha-o‘sha — **Xolxo‘janing tayog‘i!**

Baholash mezonlari (25 ball)

1. Yordamchi so‘z turkumlarini aniqlay olishi	8 ball
Matndan keltirilgan gaplar tarkibidan yordamchi so‘zlarni aniqlab, ularni turiga ko‘ra ajrata olgan bo‘lsa –	6 – 8 ball
Matndan keltirilgan gaplar tarkibidan yordamchi so‘zlarni aniqlay olgan, ammo turiga ko‘ra ajrata olmagan bo‘lsa –	3 – 5 ball
Gaplar tarkibidan yordamchi so‘zlarni mustaqil so‘zlar bilan yoki boshqa birliklar bilan chalkashtirib yuborgan bo‘lsa –	1 – 2 ball
2. Kelishik shakllari hamda ularning gapdagi sintaktik vazifalarini aniqlay olishi	6 ball

Kelishik shakllarini olgan so‘zlarning gapdagi vazifasini to‘g‘ri aniqlay olgan bo‘lsa –	5 – 6 ball
Kelishik shakllarini olgan so‘zlarning gapdagi vazifasini qisman aniqlay olgan bo‘lsa –	2 – 4 ball
Kelishik shakllarini olgan so‘zlarning gapdagi vazifasini chalkashtirib yuborgan bo‘lsa –	1 ball
3. Ismlarni kesimga xoslovchi shakllarni aniqlay olishi	6 ball
Ismlarni kesimga xoslovchi shakllarni fe’lning munosabat shakllaridan ajrata olsa –	5 – 6 ball
Ismlarni kesimga xoslovchi shakllarni fe’lning munosabat shakllaridan qisman ajrata olsa –	2 – 4 ball
Ismlarni kesimga xoslovchi shakllarni fe’lning munosabat shakllari bilan chalkashtirib yuborgan bo‘lsa –	1 ball
4. Matnni tushunishi	5 ball
ajratib ko‘rsatilgan birikmaning matn mazmuniga qay darajada ta’sir etganini, qanday mazmun ifodalab kelganini fikr-mulohazalari orqali aniq, to‘g‘ri ketma-ketlikda ifodalab bera olgan bo‘lsa –	4 – 5 ball
ajratib ko‘rsatilgan birikmaning matn mazmuniga qay darajada ta’sir etganini, qanday mazmun ifodalab kelganini fikr-mulohazalari orqali biroz tartibsiz bayon etgan bo‘lsa –	2 – 3 ball
fikr-mulohazalarini tartibsiz, ayrim o‘rinlarda matn mazmuniga mos kelmaydigan fikrlar orqali ifodalagan bo‘lsa –	1 ball
Jami:	25 ball